



## TARIXIY SHAXS RUHIYATINING YUKSAK BADIY TALQINI

**Baltayeva Ikbal Tadjibayevna**

filologiya fanlari doktori, prof.v.b.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya  
va sport universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15303164>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 29-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

*“Ulug‘bek xazinasi”, tarixiy shaxs, tarixiy davr, Abdullatif, ayovsiz iztiroblar silsilasi, ma‘naviy sifatlari, dramatik to‘qnashuvlar, tasvirlash.*

### ABSTRACT

*Maqolada iste‘dodli ijodkor Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanida buyuk alloma va sulton Ulug‘bekning ruhiyatida kechgan ayovsiz iztiroblar silsilasining badiiy ifodasi haqida so‘z boradi. Bu roman orqali dunyo adabiyotida Odil Yoqubov iste‘dodining o‘rni, olim va shoh Mirzo Ulug‘bek ruhiyati ifodasi va adabiy yangiliklar yaratish mahorati xususida fikr yuritiladi.*

Tarixiy voqelik va tarixiy shaxslarni tasvirlash bo‘yicha salmoqli adabiy tajribalarga ega o‘zbek adabiyotida Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Omon Muxtor, Ismoil Shomurod singari nosirlarning romanlari o‘ziga xos voqea bo‘lgan. Shu jumladan, O. Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida ham buyuk alloma va sulton Ulug‘bekning ruhiyatida kechgan ayovsiz iztiroblar silsilasi juda ishonarli tasvirlangan. Bu romanda dunyo adabiyotida ko‘pdan buyon mavjud bo‘lgan yetakchi adabiy an‘analarga vorisilik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo Odil Yoqubov an‘analar ta‘siri va soyasida qolib ketmaydi, ustoz san‘atkorlarga taqlid qilmaydi, mavjud shakliy qoliplar ichida turgani holda adabiy yangiliklar yaratishning uddasidan chiqadi.

“Ulug‘bek xazinasi” romani nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy adabiyotlarning umumiy yutug‘i bo‘lgan asardir. Asar olim va shoh Mirzo Ulug‘bek qirq yil davomida yaratgan va to‘plagan boylik bo‘lgan kitoblar hamda uning ilmiy maktabi namoyandalarini asrab qolish yo‘lidagi voqea-hodisalar tasviriga bag‘ishlangan. Ammo, qanchalar dramatik va qaltis bo‘lmasin, adib uchun bu voqealarni ko‘rsatishning o‘zi badiiy maqsad emas, balki ular Ulug‘bek, Ali Qushchi, Mavlono Muhiddin, Abdullatif, Salohiddin Zargar, Qalandar Qarnoqiy, Xurshidabonu singari obrazlarga xos ma‘naviy sifatlarni tasvirlash uchun adabiy fon vazifasini o‘taydi. Bu qahramonlar tabiatiga xos jihatlar, ularning ichki dunyolarini ochish asnosida Ulug‘bek va atrofida ruhiyatining badiiy tarixi yuzaga chiqadi.

Ma‘lumki, hayot daryosi oqimining o‘rtasida bo‘lgan shaxsiyatlar hamisha ziddiyatlar og‘ushida bo‘ladi. Hukmdorlar esa ijtimoiy maqomiga ko‘ra jamiyat daryosining o‘rtasida bo‘lishga mahkum shaxslardir. Har bir insonning asl qiyofasi hayotidagi keskin burilishlar asnosida ko‘zga tashlanadi. Romanda Ulug‘bek adolat va insof singari ezgu qadriyatlarga amal qilishga uringan podshoh hamda tengsiz olim sifatida ko‘rsatiladi. Yozuvchi ulug‘ olim va adolatli shohning hayotini boshdan-oxirigacha to‘liq tasvirlab o‘tirmaydi. Asarda Ulug‘bek

hayotining eng fojiali damlari qalamga olinadi. Kerakli o'rinlarda o'tmishdagi voqealar retrospektiv yo'sinda ko'rsatilib, obrazlarning his-tuyg'ulari tasvirlanib, hayotidagi asosiy voqealar, u bilan yonma-yon yoki elkadosh bo'lgan ko'plab tarixiy va to'qima shaxslar siymosi gavdalantiriladi.

Romanda tarixda bo'lib o'tgan voqealarni qayd etishdan ko'ra o'sha voqealarda qatnashgan shaxslarning ruhiy olamini ko'rsatishga ko'proq e'tibor berilgan. Yozuvchi Abdullatifning tabiatidagi padarkushlik ildizini ham uning shuhratga o'chligida, ham otasiga qarshi kayfiyatdagi mutaassiblar ta'sirida tarbiyalanganida va ham islom dini mohiyatini yuzaki tushunib, otani shakkok, deb o'ylashida ekanini dramatik to'qnashuvlar tasviri orqali ko'rsatib beradi. Ulug'bekning toj-taxtga intilishdan ko'ra ilm bilan shug'ullanishni zarurroq, deb bilgani Abdullatifga qarata aytgan: ***“Menga hech narsa kerak emas. Bu toju taxt, saltanat, shon-shuhrat — bari o'zingga buyurgay, faqirga yolg'iz rasadxonani in'om etsang bas! Bir burda non, bir qumg'on sovuq suv bo'lsa etar. Azmim qolgan umrimni «Ziji Ko'ragoniy»ni tugatib, mutolaa ila kun kechirmoqdir»***, tarxidagi gaplarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdullatifning unga qaytargan gaplarida esa machitdagi mullalar darajasida fikrlaydigan, sal uzoqni ko'rishga intiladigan, yurilmagan yo'llardan yurishni istaydigan odamni Allohga ters, rasulillohga dushman, dinni oyoq osti qilgan kimsalar sanaydigan tor fikrli kishining saviyasi ayon bo'ladi: ***«Tag'in rasadxona! Tag'in «Ziji Ko'ragoniy»! Mudarris dastorini o'ragan murtaidlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz! Bul uchun haq taoloning qahriga, payg'ambar alayhissalomning qarg'ishiga uchrab, taxtu tojdan, saltanatdan ayrilmishsiz. Ammo istig'for aytmoqni tilamay, tavbat-zarru qilmoqni istamay, tag'in rasadxonani o'ylaydirlsiz!.. Ey parvardigori olam! Aning kalomini o'zing eshitding! Gunohi azimga botgan bu osiy bandangni o'zing avf etgaysan, Xalloqi olam!..»*** Ko'rinadiki, shahzoda din deganda shariat talablaridan ko'ra shariat peshvolarini ko'z oldiga keltiradigan mutaassib kimsa.

Yozuvchi Abdullatifni taxt yo'lida hech narsadan qaytmaydigan qonxo'r va yovuz odam sifatida tasvirlamaydi. Asarda uning ancha o'qimishli, sinchkov, iste'dodli, jasur yigit ekani ham ko'rsatiladi. Ayni vaqtda u shubhakor shaxs bo'lgani uchun o'zini otasi tomonidan suyilmagan va mehnatlari qadr topmagan jabrdiyda o'g'il deb sanashi ishonarli aks ettiriladi. Buni Abdullatifning Ulug'bekka aytgan: ***«Balli Sizday padarga! Sizning yaxshiligingizni bilurmiz. Tarnob jangida jonbozlik ko'rsatgan kim? Men! Ammo muzaffar yorlig'i kimning nomiga bitildi? Suyukli farzandingiz Abdulaziz... Ixtiyoriddin qal'asidagi bobom Amir Temurdan qolgan tillalarimni tortib olgan kim? Yana siz, valine'mat padarim! Ne chora? Mute farzand indamay bosh egdik va lekin bas! Sohibqiron oltinlarini qayga yashirdingiz, soyaboni marhamat?»*** so'zlarida yaqqol ko'rish mumkin. Anglashiladiki, romanda Abdullatif faqat qora ranglar bilan chizilmay, yozuvchi uning xatti-harakatlari va tutumlari boisini ochishga, tabiatidagi ko'zdan pinhon jihatlarni ko'rsatishga e'tibor qaratgan.

Butun roman davomida Ulug'bek og'ir o'ylar girdobida qolgan odam, ota, hukmdor sifatida turli qirralari bilan namoyon bo'ladi. Asarda Ulug'bek atrofidagi dushmanlardan ko'ra o'zi bilan o'zi kurashayotgan shaxs o'laroq tasvirlangan. Uning tabiatidagi olimlik jihatlari ustun kelganda, saltanatni topshirib, ilm bilan shug'ullanish istagi jo'sh ursa, tomirlarida temuriy qoni qaynagan paytlarda yovlarini yakson qilib tashlash tuyg'usi g'olib kelishi juda haqqoniy aks ettiriladi. Ulug'bekning Ali Qushchiga nadomat bilan aytgan: ***«Mirzo Ulug'bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da'vo etgan mavlono, hayhot,***

*oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb o'z pushti kamaridan bo'lgan farzandi ila taxtu toj talashibdi-da, degan nom qoldirishdan qo'rqamen»,—* yo'sinidagi gaplarida uzoqni o'ylaydigan mutafakkir olim tabiati bo'y ko'rsatadi. Nobakor o'g'li bilan fikriy olishuvda esa tiynatidagi boshqa jihat namoyon bo'ladi: **«Ota so'zini amri vojib deb bilursanmi, yo'qmi ixtiyor senda. Va lekin so'nggi nasihatimni eshit, xohla o'z padaringni qatl et, xohla Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil boz ixtiyor sendadur. Lekin yolg'iz tilagim: ilm yo'lida otang qilgan ishlarga, uning shogird va ustozlariga tegmagaysen. Tegsang, ...ota qarg'ishiga uchrab toabad badnom bo'lursen!. Ota rozi — xudo rozi, yodingda bo'lsin: al qasosil minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz qolmaydur! Senga aytadurg'on boshqa so'zim yo'q! Chaqir yasovulingni!»** Bu tasvirlar o'quvchi tasavvurida bir umr hukmronlik qilib yashagan yovqur shaxsni gavdalandiradi. Alloma ota va taxtparast o'g'il o'rtasidagi to'qnashuvlar asnosida har birining tabiatidagi fazilat va illatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Badiiy obraz tabiatini shu taxlit ko'rsatishni V. Skott, O. Balzak, Stendal, Flober, Qodiriy, Tolstoy, Oybek singari badiiy titanlar ijodidagi yetakchi xususiyatlarga vorislik qilishning ijobiy natijasi deyish mumkin.

Dunyo adabiyotidagi eng yaxshi romanlardagi kabi "Ulug'bek xazinasini" asarida ham timsollar yozuvchi tomonidan ta'rifu tavsif qilinmay, tirik odamlarning o'zaro munosabatlari, xatti-harakatlari va gap-so'zlari tasviri orqali ko'rsatiladi. Ular jonli odamlar tarzida tasvir etilganliklari sabab kitobxon biriga achinsa, boshqasidan nafratlanadi. Romanda Ali Qushchining sadoqati, Mavlono Muhiddinning esa ulkan alloma bo'lgani holda qo'rqoq va e'tiqodsiz shaxs ekanligi, shayx Nizomiddin Xomushning taxt ilinjidagi Abdullatifni qo'lida o'ynaydigan qo'g'irchoqqa aylantirgani singari tasvirlar o'quvchini ishontiradi. Yozuvchi romandagi har bitta qahramon fe'lidagi o'zgarishlarni badiiy dalillashning uddasidan chiqqan.

"Ulug'bek xazinasini" asarida shogirdning ustozga sadoqatli yoki xiyonatli munosabatlari Ali Qushchi va Mavlono Muhiddin obrazlari misolida yorqin aks ettirilgan. Mavlono Muhiddin ustoz boshiga kulfat tushganda ojiz bir xiyonatkor odam ekanini namoyon etadi. Ulug'bekdan cheksiz muruvvat ko'rgan mavlono shohdan omad ketgach, undan uzoqlashadi. Muallifning yutug'i shundaki, asarda mavlono Muhiddinga bu xiyonatni qilish oson bo'lmagani ishonarli ko'rsatiladi. Aslan yirik shaxs bo'lmagani uchun mavlono Muhiddin hamisha birovlar yetovida yurishga mahkum kimsa ekani romanda ishonarli tasvirlanadi. Adib uning fe'lidagi bu o'zgarishlarni hayotiy va badiiy dalillay bilgan.

Ali Qushchi – bu o'tar dunyoda o'limdan ham qo'rqinchli va hayotdan ham shirinroq qadriyatlar borligini teran angelaydigan shaxs. Hibsda ekanida uning ustozga sadoqati yorqin namoyon bo'ladi. Ali Qushchidan Ulug'bekning kitoblari va oltinlari haqida aniq ma'lumotni qo'lga kiritish niyatida uning yoniga atay qamab qo'yilgan mavlono Muhiddin bilan bo'lgan fikriy olishuvlardan ularning tamomila boshqa-boshqa odamlar ekani ko'rinadi. Ali Qushchi timsolida iymonli kishi har qanday sharoitda ham odamiyligini yo'qotmay, jaholat va zulmni yenga bilishi aks etgan.

Xulosa qilib aytganda, romanni o'qish davomida Ulug'bekning xazinasini faqat u yiqqan kitoblardangina iborat emasligi, bu xazina, avvalo, odamlar orasida adolat, iymon, e'tiqod, halollik singari qadriyatlarga ishonch uyg'otilganida ekani va shu sabab bu ganjina hech qachon yo'qolib ketmasligi kitobxonlar tomonidan anglab yetiladi. Adib bunday adabiy muvaffaqiyatga vorisiylikda an'ana va yangilovchilik uyg'unligiga amal qilgani sabab erishdi. Yozuvchi o'zidan oldingi ijodkorlarning eng yaxshi tajribalaridan foydalandi, ayni vaqtda

qalamga olingan har bir timsolni betakror jonli odam sifatida ko'rsatishga erishib, an'analarni yangilay oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Одил Ёқубов. Улуғбек хазинаси. Роман. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. –Тошкент, 2007. –334 б. 2
2. Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий -танқидий мақолалар, суҳбатлар. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. –Б.35. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 210
3. Раҳимов З.А. Одил Ёқубов тарихий романлари поэтикаси. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2022. –Б.19
4. Ёқубов И. Мададкор руҳ// Бадий тафаккур ва адабий жараён. –Т.: 2003, №1
5. Қурбонов Т. Одил Ёқубовнинг портрет яратиш маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1997. –167
6. Baltayeva I. On the peculiarities of succession in Uzbek literature// International journal on orange technologies. Impact Factor. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/issue/view/68> Volume: 03 Issue: 04 | April 2021. 310-314 pagies. SJIF (2021) =5.954 (№23).
7. Baltayeva I. A tradition and artistic-aesthetic renewal - as a factor for the development of literature//ACADEMICIA an International Multidisciplinary Research Journal. INDIA ISSN: 2249-7137 Vol.11, Issue 9, September. 2021. <https://saarj.com/635-640> pagies. SJIF (2021) =7.492 (№23).
8. Baltayeva I. Fundamentals of formation of epic thinking//ACADEMICIA: an International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 04, April 2022. <https://saarj.com>. 534-537 pagies. SJIF (2022) =8.252 (№23)

INNOVATIVE  
ACADEMY